

Чуст шаҳри

Foziljon Xasanov XK бундан буён «Сотувчи» деб аталувчи номидан З.Абдуллаев бир томондан, Чуст туман Ҳокимлиги бундан буён «Харидор» деб аталувчи номидан Ж.Баходиров иккинчи томондан қуйидагилар тўғрисида ушбу шартномани туздилар.

### I. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

1.1 «Сотувчи» ушбу шартномага асосан «Харидор»га ўзаро келишилган миқдорда ва муддатларда шартноманинг умумий қийматидан ошмаган суммадаги товар (хом-ашё) махсулотларини етказиб беради, «Харидор» етказиб берилган товар (хом-ашё) махсулотларини қабул қилиб олиб, тўлов ҳужжатларини амалдаги қонуқчилик талабларига мувофиқ расмийлаштиради, «Сотувчи» тақдим этган тўлов ҳужжатларига асосан «Харидор»нинг белгиланган тартибда ҳисоб-рақамидан тўловларини амалга оширади.

### II. ШАРТНОМА БАҲОСИ, МАХСУЛОТ ЕТКАЗИБ БЕРИШ ВА ҲИСОБ-КИТОБ ТАРТИБИ

2.1 Мазкур шартноманинг умумий қиймати 1198000000 (Бир миллиард бир юз туқсон саккиз миллион ) сўми ташкил этади. Етказиб бериладиган товар (хом-ашё) махсулотларининг шартнома тузиш вақтидаги миқдори, нархи ва етказиб бериш муддати қуйида келтирилган:

№	Махсулот номи	Улчов бирлиги	Миқдори	1 бирлигининг нархи (сум)	Жами сумма (ҚҚС сиз)
1	Трансформаторная подстанция КТПС 400/10/04 кв	комп	20	59900000	1198000000
2					
3					
4					
5					
	ЖАМИ	X	X	X	

2.2 «Харидор»га товар (хом-ашё) махсулотлари «Сотувчи»нинг транспортида етказиб берилади.

2.3 «Харидор» оладиган товар (хом-ашё) махсулотлари учун амалдаги қонуқчиликда кўрсатилган миқдордан кам бўлмаган миқдорда 30% фойз аванс тўловини олдиндан «Сотувчи» ҳисоб-рақамига ўтказиб беради.

2.4 «Сотувчи» ҳисоб-рақамига аванс тўлови келиб тушгандан кейин 3 кун муддатда товар (хом-ашё) махсулотларини етказиб беради.

2.5 Етказиб берилган товар (хом-ашё) махсулотлари учун «Харидор» тақдим этган ҳужжатларга асосан 85% ҳисоб-китобни махсулотлар тўлиқ етказиб берилгандан кейин 3 кун мобайнида «Сотувчи» ҳисоб-рақамига пул ўтказиш йўли билан амалга оширади.

### III. ШАРТНОМАНИ БАЖАРИЛИШИ

3.1. Мазкур шартнома қонун ҳужжатлари шартлари ва талабларига мувофиқ тарзда бажарилиши керак. Агар томонлар ўз зиммаларига қабул қилинган барча мажбуриятлар бажарилишини таъминласа, шартнома бажарилган деб ҳисобланади.

3.2 «Харидор» томонидан талабномани товар (хом-ашё) махсулотларининг тегишли туркумларини етказиб беришнинг мўлжалланаётган санасигача камида 3 кун олдин чопар орқали, почта орқали ёки бошқача тарзда берилади. Талабномани чопар орқали қабул қилишда «Сотувчи»нинг ходими "Харидор" да қоладиган нусхага санани кўрсатган ҳолда у қабул қилинганлиги тўғрисида белги қўяди.

3.3. «Харидор» илгари берилган талабномани бекор қилишга ёхуд товар (хом-ашё) махсулотларининг тегишли туркумларини етказиб бериш санасини ўзгартиришга ҳақлидир, бу ҳақда «Сотувчи»ни талабномада кўрсатилган сана бошланишидан камида 1 кун олдин хабардор қилади.

3.4. «Харидор» муддатлар бузилган ҳолда етказиб берилган товар (хом-ашё) махсулотларини қабул қилишни рад этишга ҳақлидир.

3.5. «Харидор» «Сотувчи» томонидан товар (хом-ашё) махсулотлари ўз вақтида етказиб берилмаган ёки сифатсиз махсулотлар етказиб берилган ҳолатларда шартномани «Сотувчи» ёзма хабардор қилган ҳолда бир томонлама бекор қилиши мумкин. Қолган ҳолатларда шартнома шартларига тегишли ўзгартиришлар томонларнинг ўзаро қўшимча келишувларига мувофиқ киритилади.

### IV. ТОМОНЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

#### «Сотувчи»нинг мажбуриятлари:

4.1 «Сотувчи» етказиб бериладиган махсулот сифатини Ўзбекистон Республикасининг амалдаги меъёрларга мувофиқ бўлишини ҳамда тегишли сифат сертификати ёки таҳлил (текшириш) баёнига эга бўлишини ва ўзаро келишилган миқдорда бўлишини таъминлайди.

4.2 «Харидор»га товар (хом-ашё) махсулотларини етказиб бериш вақтида тегишли сифат сертификат ёки таҳлил (текшириш) баёни нусхасини тақдим этади.

4.3 Товар (хом-ашё) махсулотларини қабул қилиб олиш вақтида аниқланган камчиликларни «Харидор» талабига мувофиқ 3 кунлик муддатда бартараф этади.

#### «Харидор»нинг мажбуриятлари:

4.4. Ўз талабномаси бўйича етказиб берилган товар (хом-ашё) маҳсулотларини мазкур шартномага мувофиқ қабул қилиш;

4.5. Товар (хом-ашё) маҳсулотларини белгиланган нархлар асосида тегишли муддатларда узил-кесил ҳисоб-китобни амалга оширишни таъминлаш.

#### V. ШАРТНОМА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК

5.1. Маҳсулотларнинг етказиб бериш муддатлари кечиктириб юборилган, тўлиқ етказиб берилмаган ҳолларда, «Сотувчи» «Харидор»га кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбурият бажарилмаган қисмининг 0,1 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган товарлар баҳосининг 50 фоиздан ошиб кетмаслиги лозим. Пеняни тўлаш «Сотувчи»ни товарларни етказиб бериш муддатларини кечиктириб юбориш, тўлиқ етказиб бермаслик оқибатида етказилган зарарни қоплашдан озод этмайди.

5.2. Етказиб берилган товар (хом-ашё) маҳсулотлари ҳақини ўз вақтида тўламаганлик учун «Харидор» «Сотувчи»га ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,1 фоизи миқдорида, аммо кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоиздан ортиқ бўлмаган миқдорида пеня тўлайди.

#### VI. НИЗОЛАРНИ ХАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

6.1. Келишмовчиликлар ва низоли масалалар келиб чиққан тақдирда, томонлар, қоидага кўра, мустақил равишда уларни судгача ҳал этиш чораларини кўрадилар.

6.2. Томонлар келишмовчиликлар ва низоларни ҳал этиш учун бевосита судга мурожаат қилишга ҳақлидир.

#### VII. ФОРС-МАЖОР

7.1. Форс-мажор ҳолатлар, жумладан ер қимирлаши, сел келиши каби табиий офатлар, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан янги қонун ва қарорларни қабул қилиниши натижасида келиб чиқадиган ҳолатларда тарафлар мазкур шартнома ва қўшимча келишувлар шартларини бажариш масъулиятини ўз зиммаларига олмайдилар.

#### VIII. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШИ

8.1. Мазкур шартнома «Харидор» ҳамда «Сотувчи» томонидан тасдиқландан сунг кучга киради ва 2022 йил «31» декабргача амал қилади.

8.2. Томонлар ўртасидаги муносабатлар улар томонидан мазкур шартноманинг барча шартлари бажарилган ва ҳисоб-китоб тўлиқ тугалланган тақдирда тўхтатилади.

#### IX. АЛОХИДА ШАРТЛАР

9.1. Мазкур шартномага барча ўзгартириш ва қўшимчалар, агар улар ёзма шаклда расмийлаштирилган ва томонлар уларни имзолашган бўлса, ҳақиқий ҳисобланади.

9.2. \_\_\_\_\_

#### X. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР

10.1. Мазкур шартнома икки нусхада тузилди. Шартноманинг барча нусхалари тенг юридик кучга эгадир.

Томонларнинг юридик манзили ва реквизитлари:

«Сотувчи»  
Foziljon Xasanov XK

«Харидор»  
Чуст туман Ҳокимлиги

Манзил: Чуст туман Пансада мфй  
Тел./факс :99-392-68-45  
х/р 20208000200724076001  
Банк номи: Тош ҳахар Ат Алокабанк Бош офиси  
МФО 00401      СТИР 304571331  
ОКОНХ: \_\_\_\_\_

ОКЭД: 10710

Манзил: Чуст шаҳри чарогон куча №1 уй  
Тел./факс 69 42 33 600  
Х/р\_401722860142377013990018008  
СТИР 200111061  
ОКОНХ 97600  
Тошкент шаҳар марказий банк  
ШХР 23402000300100001010  
МФО 00014 инн 201122919

Раҳбар



М.Ў.

Раҳбар



(Имзо)

М.Ў.

М. Ҳасанов



NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI  
YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIGA O'TKAZISH TO'G'RSIDA

# GUVOHNOMA

№ 2782

Reestr № 03180

2017 yil "25" yanvar

Mazkur guvohnoma "FOZILJON XASANOV"

(yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer uchastkasi va maydoni)

yuridik shaxsga berildi.

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Xususiy korxonasi

THSHT

110

Mulkechilik shakli:

Xususiy mulkechiligi

MSHT

114

Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili

Chust shahri, Pansada MFY, So'fizoda ko'chasi, 1-uy.

MHBT

1714237501

Yuridik shaxs kodi:

KTUT

26821792

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami:

STIR

304571331

Qo'shimcha ma'lumotlar:



Vakolatli organ boshlig'i:

GUVOHNOMANI  
QABUL QILASIZMISIZ  
ONUN TOMONIDAN  
TA'QIB QILINADI



## XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - Yil 29 - sentabr

VI-49-86-6-89-K/22

Chust tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" portali orqali tumanda 2-mavsumda fuqarolar tomonidan berilgan takliflarga ovoz berish yakunlari hamda tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yarim yillik ijrosi yuzasidan tuman moliya bo'limi mudirining xisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'larini sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" portali orqali tumanda 2-mavsumda fuqarolar tomonidan berilgan takliflarga ovoz berish yakunlari hamda tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yarim yillik ijrosi yuzasidan tuman moliya bo'limi mudirining xisobotini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 1, 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Chust tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq budjet xarajatlarining 5 foizi hamda tuman mahalliy budjetining shakllangan qo'shimcha manbaalarining 30 foizini jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish tartibi joriy etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" portali orqali tumanda 2-mavsumda fuqarolar tomonidan berilgan takliflarga ovoz berish yakunlari hamda

tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yarim yillik ijrosi yuzasidan tuman moliya bo'limi mudirining xisoboti ma'qullansin.

3. "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorga muvofiq ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra, g'olib deb topilgan takliflar uchun ishchi komissiya tomonidan ajratilishi belgilangan **8 095 638.0 (Sakkiz milliard to'qson besh million olti yuz o'tiz sakkiz)** ming so'm jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan tadbirlar bo'yicha takliflar **Ilovaga** tasdiqlansin va tegishliligi bo'yicha yo'naltirilsin.

Belgilab qo'yilsinki, g'olib bo'lgan tashabbuslar ilovasining 3, 11 va 12 bandlari umumiy xususiyat tusida bo'lgani, qolaversa loyiha taklifida shunday ko'rsatilgani sababli, loyiha tashabbuskorlari, tuman Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari hamda sohaga mas'ul tashkilot rahbarlarining xulosasi asosida ishlab chiqilgan manzilli ro'yxat bilan birga tuman Kengashi kotibiyatining xati asosida taqsimlansin.

4. Chust tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yil 1-yarim yillikda aniqlangan rejasi 48 mlrd 329.7 mln.so'mga belgilanganligi, haqiqatda tushumlar 51 mlrd 890.0 mln.so'mga yoki aniqlangan rejaga nisbatan 107.4 foizga bajarilganligi, xarajatlar 154 mlrd 341.1 mln.so'mga yoki 95.8 foizga moliyalashtirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin.

Ushbu boradagi xizmatlari uchun 1 hafta muddatda tuman Kengashi kotibiyati (S.Axatjonov) tuman moliya bo'limi mudiri – A.Umarov hamda Chust tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i – N.Mahkamovlarga xalq deputatlari Chust tuman Kengashining tashakkurnomasini topshirsin.

5. Tuman hokimligining bosh hisobchisi – M.Soxipov, tuman moliya bo'limi (A.Umarov) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (A.Xalilov) "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi mablag'lari hisobidan manzilli dasturga asosan mablag'larni tegishli tartibda ajratilishini hamda moliyalashtirilishini ta'minlasinlar.


6. Ushbu qarorga asosan "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi hisobidan ajratilgan mablag'larni tegishli mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga maqsadli sarflanishi hamda o'z vaqtida moliyalashtirilishi bo'yicha javobgarlik belgilansin.

Bunda belgilab qo'yilsinki, xalq deputatlari tuman Kengashi tarkibidagi mas'ul komissiyalar raislari – O.Mullajonov, B.Anvarov, J.Yuldashev, B.Xakimov hamda M.Xomidovlar o'zlarining komissiyalarida tegishli tartibda doimiy deputatlik nazorati o'rnatilishini va yakuni yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatini xabardor qilinishini ta'minlasinlar.

7. Ishchi komissiya chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda va "Ochiq budget" axborot portaliga joylashtirsin, shuningdek xalq deputatlari tuman Kengashiga amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axborot berib borsin.

8. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari -J.Baxodirov, nazorati xalq deputatlari Chust tuman Kengashining kotibiyati zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Б.Хамдамов**

VI-49-86-6-89-K/22

Xalq deputatlari Chust tuman Kengashining  
2022 yil 29 sentabrdagi  
VI-49-86-6-89-K/22-son qaroriga  
1-ilova

Chust tuman bo'yicha 2022 yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'mda)	Xaqiqatda ajratilgan (ming so'mda)	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni				
521 "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'					7 760	x	x
1	0840600207	Og'asaroy OShPni ochish uchun ta'mirlash	3 850	800	800	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Tibbiyot birlashmasi
2	0840600121	Toshqurg'on mfy xududidagi 43 QOP filialini joriy tamirlash	3 422	580	580	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Tibbiyot birlashmasi
3	0840600139	Chust tuman Yakkabuloq mfy xududidagi 400 lik 9 ta transformator hamda beton tayanchlar sotib olish tashabbusini beldiraman. Ushbu tashabbus Yakkabuloq mfy fuqarolarini kuz qish mavsumida talofatsiz o'tkazishi uchun xizmat qilardi.	2 351	600	600	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman xokimligi

4	0840600041	Bozorboshi mfyda joylashgan 70 maktab sport zal binosini tamirlash, yordamchi bino qurish va jixozlash 1 ta ish turi ilova qilinadi	2 013	1 000	1 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'lim bo'limi
5	0840600190	Chust tuman 45-sonli umumta'lim maktabi hududida 2-tipdagi sport maydoni qurish.	1 993	530	530	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'lim bo'limi
6	0840600027	10-maktabning 1989-yil qurilgan issiqlik tizimini mukammal ta'mirlash, zamonaviysiga almashtirish	1 793	700	700	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'lim bo'limi
7	0840600021	Baliqli buloq ko'chasini 1000 metr asfaltlash	1 750	400	400	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
8	0840600172	Sarqamish MFY Yangi tog' ko'chasini 1100 metr asfaltlashtirish	1 687	520	520	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
9	0840600070	Chust tuman Navro'z mfyda joylashgan 33 MTMni SEOM talablariga mos oshxona binosini qurish TAKLIFINI beraman	1 650	200	200	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
10	0840600001	17-umumiy o'rta ta'lim maktabining eshik va derazalari eskirgan zamonaviy akfa eshik va derazalarga almashtirish.	1 623	490	490	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'lim bo'limi

11	0840600062	Chust tumanida elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida tuman hududidagi 19 ta mahalla hududiga 20 ta (Quy va Yuqori Karnon mahallalariga jami 3ta, qolganlari Baymoq, Varzik, Shoyon, Mustaqillik, Yangi Bog'ishamol, Olmos, Toymasobod va A'cha kabi hududlarga) 400 kVA kuchlanishli transformatorlar o'rnatish va ushbu o'rnatiladigan transformatorlarning o'rnatilish o'rnini Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori asosida (1-sektorga 6 ta, 2-sektorga 5 ta, 3-sektorga 5 ta va 4-sektorga 4 ta) belgilashni taklif qilaman.	1 609	1 200	1 200	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman xokimligi
12	0840600032	Chust tuman mfylar ko'chalarini shag'allashtirish taklifini uchun	1 609	400	400	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
13	0840600127	Chust tumanidagi 27-umumiy urta ta'lim maktabining orka yon devorlari va kumirxonasini kayta qurish	1 568	340	340	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'lim bo'limi
<b>Taqsimlanmagan mablag**</b>					0	x	x